

Buxoro davlat universiteti
jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha ishchi guruhi
4- yig'ilish bayoni

2021-yil 15-sentabr

Buxoro shahri

Raislik qildi:

O.X. Xamidov – jamoatchilik kengashi raisi, Buxoro davlat universiteti rektori.

Ishtirok etganlar:

Prorektor - A.T. Jo'rayev, TSNQBB - M.Y.Ergashev, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i – R.G'.Jumayev, Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i - A.A. Qilichev, Xodimlar bo'limi boshlig'i - N.G'.Nusratova, kengash kotibi - N.G. Dilova, O'zbekiston yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi - F.R. Karimov, Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i – Y.K.Quliyev, fakultet dekani va kafedra mudirlari

KUN TARTIBI:

1. 2021/2022 o'quv yilida Buxoro davlat universiteti rektoriga Axborot texnologiyalari fakultetining kafedralariga vakant o'rinlarga ishga kirish uchun ariza bilan murojaat qilgan fuqarolarni jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha ishchi guruhiga tavsiya etish to'g'risida.

ESHITILDI: **A.T. Jo'rayev** – (Buxoro davlat universiteti Halqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari) Universitetda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha bir qancha ijodiy ishlar olib borilayotganligini, aynan shu maqsadda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni ishga qabul qilish va ularning ilmiy-pedagogik faoliyatini doimiy rivojlantirib borish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan kadrlar zarurligini ta'kidlab o'tdi. Ishga kirish bo'yicha ariza bilan murojaat qilgan fuqarolarni jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha ishchi guruhi va viloyat jamoatchilik kengashi a'zolariga oliy ta'limda faoliyat yuritish istagida bo'lgan kadrlarga globollashuv sharoitida qo'yilgan yuqori talablar haqida gapirib o'tdi.

Bundan tashqari pedagog xodim lavozimlariga yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, bugungi davr talabi asosida axborot texnologiyalari, chet tilini bilishi, ta'lim platformasida ishlay oladigan munosib mutaxassis shaxslarni tanlab olish kerakligi ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, har bir talabgor o'z yo'nalishi bo'yicha belgilangan tartibda ochiq dars o'tishi zarurligini va bu darslar ishchi guruh tomonidan baholanishini ta'kidladi.

Shundan so'ng, talabgorlar navbat bilan suhbatga kirishdi. Ularga sohasi, lavozim vazifalarini bilishi, ichki tartib qoidalar, odob-axloq qoidalariga to'liq rioya qilinishi, chet tili, axborot texnologiyalari, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari, OTM tizimiga oid me'yoriy hujjatlarni bilishi hamda universitetning ta'lim platformasidan foydalanish darajasi bo'yicha savollar berildi va talabgorlar tomonidan tegishli javoblar berildi.

R.G'.Jumayev – (Ishchi guruhi a'zosi, O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b.) jamoatchilik kengashi a'zolariga universitetdagi mavjud pedagog xodimlarning vakant lavozimlari to'g'risida mazkur kafedralar bo'yicha bo'sh o'rinlarni ma'lum qilindi va talabgorlarga universitetning ta'lim platformasining faoliyati hamda OTM tizimidagi qabul qilingan me'yoriy hujjatlar to'g'risida savollar berildi.

N.G.Nusratova – (Ishchi guruhi a’zosi, Xodimlar bo’limi boshlig’i) Jamoatchilik kengashi a’zolariga ilovadagi jadvalda ro’yxati keltirilgan lavozimlarga ishga kirish uchun o’nlab arizalar kelib tushganini va ushbu talabgorlarning AKT va tillarni bilish darajasini aniqlash maqsadida ulardan testlar olinganligi va shu bilan birga ingliz tilida anketa so’rovnomalari to’ldirganliklarini aytib o’tdi.

Jumladan, Axborot texnologiyalari fakultetining

Axborot texnologiyalari kafedrasiga: Sharipov Mirali Xasan ugli, Salimov Suxrob Sobirovich, Narzullayeva Feruza Sodikovna, Xamroyeva Yulduz To’raqulovna, Xaydarov Oriflar ishga kirish uchun ariza bilan murojaat qilganlar.

Jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo’yicha ishchi guruhi a’zolari tomonidan ishga kirish bo’yicha ariza bilan murojaat qilgan yuqorida nomlari keltirilgan fuqarolarga oldin nima ish bilan shug’ullanganligi, chet tili, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kasbiy odom-axloq koidalari OTM tizimidagi me’yoriy hujjatlarni qay darajada bilishi, universitetning ta’lim platformasidan foydalana olishi, oliy ta’lim tizimi va universitetning ichki tartib qoidalarini bilishi, oylik ish haqi qoniqtiradimi yoki yo’qligi, murojaat qilgan vazifa va lavozimlar bo’yicha qay darajada ma’lumotga ega ekanligi hamda ishga kelib-ketishi tartibini bilishi kabi quyidagi savollardan kamida 3 tasi berilib, ulardan tegishli javoblar olindi. Berilgan javoblarga 10 ballik tizim asosida ishchi guruh a’zolari talabgorlarni baholashdi. Baholar jadvali bayonnomaga ilova qilinadi.

Talabgor o’qituvchilarni ishga qabul qilish bo’yicha mezonlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va ta’limga oid me’yoriy hujjatlar bilan tanish ekanligi;

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid farmonlari, qarorlari, mohiyati va ularda belgilangan ustuvor yo’nalishlar hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’limga oid qarorlaridan xabardorligi;

3. O’quv-me’yoriy hujjatlar (DTS, malaka talablari, o’quv reja, ishchi reja, fan dasturi, ishchi fan dasturlari, yo’nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatori) haqidagi tushunchasi;

4. O’quv, o’quv-metodik ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va nazoratini amalga oshirishning metodlarini bilishi;

5. O’qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish (Mutaxassislik fanlari sohasiga tegishli davriy, ilmiy nashrlardagi axborotlar bilan ishlashni bilish (Kasbiy faoliyat maqsadlarida kompyuter tarmoqlarida Internet ta’lim resurslaridan va xorijiy adabiyotlardan foydalanish) darajasi;

6. Malaka oshirish kurslaridan o’tganligi;

7. Xorijiy tillarni egallaganlik darajasi (Chet tillarning birida talab darajasida lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o’qish) hamda muloqot darajasi;

8. Talabgor pedagog xodimning mutaxassisligi bo’yicha bilim, ko’nikma, malakasi va kompetentlik darajasi;

9. Mutaxassislik fanlari sohasidagi ilmiy yangiliklar va axborotlardan xabardorligi va ulardan o’quv jarayonida foydalana bilishi;

10. Pedagogik jarayonda AKT, kompyuter texnik vositalari, Mikrosoft Offise dasturlari (Word, Excel, Pover Point, Access) yordamida o’quv-metodik materiallarni tayyorlashni bilishi

11. Zamonaviy ta’lim metodlarini, jumladan, interfaol shakldagi metodlarni bilishi va ularni ta’lim jarayoniga qo’llay olish darajasi;

12. Oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, rivojlangan davlatlarning ta’lim muassasalaridagi o’quv jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalaridan xabardorligi;

13. Ta’limda kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va o’quv jarayonini tashkil etish tartibi (kredit, sinov krediti va h.k.) ni bilishi;

14. Talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini qo’llab-quvvatlash maqsadida o’quv resurslarini yaratishda MOODLE dasturiy platformasidan foydalanish darajasi;

15. OAK e'tirof etgan jurnallarda hamda mutaxassislik yoki tadqiqot mavzui bo'yicha Web of Science, Skopus, Web of Knowledge, Matematiks, Chemikal Abstrakts, Springer kabi bibliografik bazalardan biriga kiradigan reytingi yuqori xalqaro jurnallarda maqolalar nashr etganligi;
16. Talabgorning pedagogik madaniyati, imedji va nutqiy kompetentlik darajasi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamoatchilik kengashi ishchi guruhi quyidagicha **qaror qiladi**:

1. Buxoro davlat universiteti jamoatchilik kengashining mazkur yig'ilishida ishga kirish uchun ariza bilan murojaat qilgan fuqarolarning arizalari ishga qabul qilish bo'yicha ishchi guruhiga tavsiya etilganligi hamda o'rnatilgan tartibda ular bilan suhbat o'tkazilganligi qayd etilsin.
2. O'quv-uslubiy boshqarma, fakultetlar dekanlari va kafedra mudirlari bilan hamkorlikda universitetning test markazida ishga kirish uchun ariza bilan murojaat qilgan fuqarolarga chet tili va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan bilim darajasini aniqlash bo'yicha test sinovi tashkil etilganligi e'tiborga olinsin.
3. Jamoatchilik kengashi raisi va a'zolari ishchi guruhi suhbatdan o'tib tegishli baholangan talabgorlar o'z yo'nalishlari bo'yicha 1 soatlik ochiq dars o'tganligi, ushbu darslar (TSNQBB - M.Y.Ergashev, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i R.G'.Jumayev) ishchi guruh tomonidan baholanganligi hamda barcha ballar umumlashtirilgan jadval ma'lumoti bayonnomalarga ilova qilinishi ta'kidlansin.

Xodimlar bo'limi boshlig'i N.G.Nusratovaga:

4. Ishchi guruhi tomonidan mutaxassisligi doirasida berilgan savollarga javob berganligi hamda ishchi guruhi xulosasiga ko'ra, Salimov Suxrob Sobirovich, Narzullayeva Feruza Sodikovna, Xaydarov Oriflar ishga kirish uchun ariza bilan murojaat qilganlar quyidagi bo'sh ish o'riniga tavsiya etilsin.

Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga:

- 1.Salimov Suxrob Sobirovich
 - 2.Narzullayeva Feruza Sodikovna
 - 3.Xaydarov Orif
5. Yuqorida suhbatdan o'tgan S.S.Salimov, F.S.Narzullayeva, O.Xaydarov 2021-yil 15-sentabr sanasidan kafedra o'qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilinsin.
 6. Ishchi guruhi tomonidan suhbat jarayonida berilgan savollarga to'liq javob bermaganligi, test sinovida to'plagan ballarining qoniqarsizligi, dars soatlari va bo'sh ish o'rnining yo'qligi kabi sabablarga ko'ra Sharipov Mirali Xasan ugli, Xamroyeva Yulduz To'raqulovnalarning arizasi qondirilmasin va bu haqda fuqaroga javob xati jo'natilsin.

**BuxDU jamoatchilik kengashi
ishchi guruhi mas'ul kotibi**

N.G. Dilova